

**TALIM TIZIMIDA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA PSIXIK
RIVOJLANISH JARAYONINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI****Azimova Inobat Xusan qizi***Jizzax viloyati Sharof Rashidov
tumani 44-maktab psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada maktab yoshidagi bolalarda psixik rivojlanish jarayonida uchraydigan psixologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Psixik rivojlanish jarayoni bolaning kognitiv, emotsional, irodaviy va ijtimoiy sifatlarining shakllanishini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar o'quvchilarning o'qish faoliyati va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixik rivojlanish, maktab yoshi, kognitiv jarayonlar, emotsional rivojlanish, ijtimoiylashuv, o'quvchi, psixologik muammo, rivojlanish kechikishi, stress, pedagogik yondashuv.

KIRISH

Maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va individual biologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu davrda bolaning idroki, tafakkuri, xotirasi, diqqat jarayonlari, emotsional holati hamda ijtimoiy munosabatlari jadal rivojlanadi. Biroq ayrim hollarda psixik rivojlanishda turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Psixik rivojlanish muammolarining asosiy sabablaridan biri noqulay oilaviy muhit hisoblanadi. Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, e'tiborsizlik, haddan tashqari qattiq nazorat yoki aksincha befarqlik bolaning emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada bolada qo'rquv, xavotir, o'ziga ishonchsizlik yoki agressiv xulq-atvor shakllanishi mumkin.

Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar ham psixik rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. O'quv materialini o'zlashtirishdagi muammolar, o'qituvchi bilan munosabatlarning sustligi va past baholar bolada motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida intellektual rivojlanishning sekinlashishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar ham muhim omillardan biridir. Maktabda kamsitilish, zo'ravonlik (bullying) yoki ijtimoiy chetlanish bolalarda ijtimoiy qo'rquv, introversiya va depressiv holatlarni kuchaytirishi mumkin.

Psixik rivojlanish jarayonida kognitiv funksiyalarning yetarli darajada rivojlanmasligi ham kuzatilishi mumkin. Diqqatning beqarorligi, xotira sustligi, mantiqiy fikrlashning zaifligi o'quv faoliyatini qiyinlashtiradi va bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Emotsional rivojlanishdagi muammolar ham keng

tarqalgan. Hissiyotlarni boshqarish qobiliyatining yetarli shakllanmaganligi bolalarda tez jahldorlik, impulsivlik yoki haddan tashqari tortinchoqlikni keltirib chiqaradi. Bu esa ijtimoiy moslashuvni qiyinlashtiradi.

Psixik rivojlanish muammolarini bartaraf etishda maktab psixologining roli juda muhimdir. Psixologik diagnostika, kuzatuv va suhbatlar orqali muammolar erta aniqlanadi va individual korreksion dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, psixologik treninglar, o'yin terapiyasi, relaksatsiya mashqlari va guruhiiy mashg'ulotlar orqali bolalarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiriladi. O'qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlik esa bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Psixik rivojlanish va bu jarayonga ta'sir etuvchi kuchlar o'rtasidagi o'zaro munosabat qonuniyatlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi hamda pedagogik psixologiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki inson shaxsining shakllanishi va uning psixik rivojlanishi murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, uning ilmiy asoslarini chuqur o'rganish ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Inson psixikasining rivojlanishi masalasi psixologiya tarixida turlicha talqin qilingan. Turli ilmiy yo'nalishlar psixik rivojlanishning asosiy manbaini turli omillarda ko'rganlar. Bu esa shaxs shakllanishi haqidagi qarashlarning xilma-xilligini yuzaga keltirgan.

Biogenetik yo'nalish va uning mazmuni

XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan biogenetik yo'nalish vakillari inson psixik rivojlanishining asosiy omili sifatida irsiyatni (nasliy omillarni) ko'rsatadilar. Bu nazariyaga ko'ra, insonning barcha psixik xususiyatlari — qobiliyat, temperament, xarakter va aqliy imkoniyatlar tug'ma bo'lib, biologik tuzilishga bog'liq holda shakllanadi.

Ushbu yondashuv tarafdorlari psixik rivojlanishni organizmda mavjud bo'lgan tug'ma imkoniyatlarning tabiiy yetilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, insonning rivojlanish darajasi oldindan genetik jihatdan belgilangan bo'lib, ta'lim va tarbiya faqat shu imkoniyatlarning ochilishiga yordam beradi, xolos.

Ba'zi biogenetik nazariya vakillari hatto inson qobiliyatlarini maxsus testlar orqali aniqlab, ta'lim jarayonini shu darajaga moslashtirish kerak, degan fikrni ilgari surganlar. Bu esa ta'lim tizimini qat'iy tabaqalashuvga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

Sotsiogenetik yo'nalish va uning mohiyati

Biogenetik yondashuvga qarama-qarshi ravishda sotsiogenetik konsepsiya shakllangan bo'lib, u psixik rivojlanishning asosiy omili sifatida ijtimoiy muhit va tarbiyani ko'rsatadi. Bu yo'nalish vakillarining fikricha, inson tug'ilganda "toza varaq" (tabula rasa) holatida bo'ladi va uning shaxsiy xususiyatlari hayot davomida shakllanadi.

D. Lokkning qarashlariga ko'ra, bola dunyoga kelganda uning ongi tajribasiz bo'ladi va keyinchalik u jamiyat, oila hamda atrof-muhit ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun shaxsning qanday bo'lib yetishishi uning hayotiy tajribasi va olgan tarbiyasiga bog'liqdir.

Sotsiogenetik nazariya vakillari insonlar o'rtasidagi individual farqlarni ham aynan ijtimoiy muhit va tarbiya sharoitlari bilan izohlaydilar.

Psixanalitik yondashuv

Zigmund Freyd tomonidan ilgari surilgan psixanalitik nazariya shaxs rivojlanishini asosan tug'ma instinktlar bilan bog'laydi. Uning fikricha, inson xulq-atvorining asosida jinsiy va agressiv instinktlar yotadi. Jamiyat esa bu instinktlarning erkin namoyon bo'lishini cheklaydi. Natijada ular ong ostiga siqib chiqariladi va shaxs xulq-atvoriga yashirin tarzda ta'sir ko'rsatadi. Freydgga ko'ra, inson harakatlarining ko'p qismi aynan ong osti jarayonlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishi

Hozirgi zamon psixologiya fani yuqoridagi nazariyalarning birortasini mutlaq deb hisoblamaydi. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, psixik rivojlanish uch asosiy omilning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi:

Ijtimoiy muhit – bola yashaydigan oila, maktab, jamiyat va undagi munosabatlar tizimi;

Ta'lim va tarbiya – maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayonlar;

Irsiy xususiyatlar – biologik va genetik asoslar.

Bu omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxs rivojlanishini kompleks tarzda belgilaydi.

Shaxsning ijtimoiy tabiati

Shaxsning mohiyati ijtimoiy tabiatga ega. Inson jamiyatdan tashqarida shaxs sifatida shakllana olmaydi. Har bir bola oila, maktab va jamiyatda turli ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiradi va aynan shu jarayonda uning psixik xususiyatlari shakllanadi.

Shaxsning rivojlanish manbai tashqi muhit emas, balki insonning shu muhit bilan faol o'zaro munosabatidir. Ya'ni, bola muhit ta'sirini passiv qabul qilmaydi, balki uni faol ravishda o'zlashtiradi va qayta ishlaydi.

Psixik rivojlanish jarayonining bosqichlari

Psixik rivojlanish murakkab jarayon bo'lib, u bir necha yo'nalishda kechadi:

bilim va faoliyat usullarining shakllanishi;

ularni qo'llash mexanizmlarining rivojlanishi;

shaxsning umumiy psixologik xususiyatlarining takomillashuvi (motivatsiya, qiziqish, fikrlash, irodaviy sifatlar).

Shuningdek, bolada yosh davrlari davomida tashabbuskorlik, mustaqillik, muloqotga kirishish, emotsional barqarorlik kabi sifatlar shakllanib boradi.

Oilaviy muhitning ahamiyati

Bola psixik rivojlanishida oilaviy muhit alohida o‘rin tutadi. Ota-ona va yaqinlarning munosabati, oiladagi psixologik iqlim bolaning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Sog‘lom oilaviy muhit bolada ijobiy fazilatlarni rivojlantiradi, aksincha, nizoli va beqaror muhit esa psixologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun bolaga salbiy ta’sir etuvchi vaziyatlarni uning oldida muhokama qilish tavsiya etilmaydi.

Psixik rivojlanish — bu irsiyat, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiyaning o‘zaro uzviy ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab va uzluksiz jarayondir. Inson shaxsi aynan shu omillarning faol o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Maktab yoshidagi bolalarda psixik rivojlanish jarayonida yana bir muhim jihat — bu individual rivojlanish sur’atlarining turlicha bo‘lishidir. Har bir bola o‘zining biologik, irsiy va ijtimoiy sharoitlariga ko‘ra turlicha tezlikda rivojlanadi. Shu sababli ayrim o‘quvchilarda o‘zlashtirishning kechikishi yoki psixik funksiyalarning notekis rivojlanishi kuzatilishi mumkin. Bu holat noto‘g‘ri pedagogik baholash yoki taqqoslashlar natijasida bolaning o‘ziga ishonchini pasaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot muhitining ta’siri ham psixik rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Internet va raqamli qurilmalardan me’yoridan ortiq foydalanish diqqatning tarqoqlashuvi, xotira jarayonlarining susayishi hamda muloqot ko‘nikmalarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning real ijtimoiy muhitga moslashishini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, psixik rivojlanish muammolarini kamaytirishda ijobiy motivatsiya va qo‘llab-quvvatlovchi muhit muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining rag‘batlantiruvchi munosabati, ota-onaning mehrli yondashuvi va tengdoshlar bilan sog‘lom muloqot bolaning psixik barqarorligini mustahkamlaydi. Shaxsiy yutuqlarni e’tirof etish, kichik muvaffaqiyatlarni qadrlash va bolaning qobiliyatiga ishonch bildirish uning psixik rivojlanishini tezlashtiradi va muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab yoshidagi bolalarda psixik rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ko‘p omilli bo‘lib, ular oilaviy, ijtimoiy va pedagogik sharoitlar bilan bog‘liqdir. Ushbu muammolarni erta aniqlash, kompleks psixologik-pedagogik yondashuvni qo‘llash hamda oila va maktab hamkorligini kuchaytirish bolaning sog‘lom psixik rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Psixologik jihatdan barqaror va sog‘lom rivojlangan bolalar kelajakda jamiyatda faol, mustaqil va muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Shoumarov G'.B. Bola psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Jean Piaget. Cognitive Development Theory. – 1952.
6. Lev Vygotsky. Social Development Theory. – 1978.
7. UNICEF. Child Development and Education Reports. – 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.